



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 230 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULAR BILAN ISHLASH MEXANIZMINING ZARURIYATI

Salixova G.J

TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrası assistenti,
TIU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmi zaruriyati o'rganilgan bo'lib, bunda nazariy jihatlar orqali bu jarayon ochib berilgan. Muammoli kreditlar banklar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, likvidlik va rentabellikka bo'lgan xavf-xatarlarni oshirishi, shuningdek, iqtisodiyotning barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Maqolada muammoli kreditlar tushunchasi, ularning yuzaga kelish sabablari, va bu kreditlar bilan bog'liq iqtisodiy, hamda tashkilotlararo masalalar nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Banklarning risklarni boshqarish strategiyalari, kreditlarni qayta tuzish, faqat xavfli kreditlar bilan ishlashga qaratilgan metodologiyalar va boshqa ilg'or yondashuvlar keltirilgan. Shuningdek, tijorat banklarining muammoli kreditlar bilan kurashishda qo'llaniladigan muvofiq choralar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish usullari yoritiladi. Maqola muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalda qo'llashning muhimligini ta'kidlab, bu boradagi ilmiy va amaliy takliflarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: muammoli kreditlar, kredit siyosati, kredit riskini baholash, iqtisodiy barqarorlik, bank rentabelligi, bank kapitali, operatsion reja.

Abstract: The article explores the necessity of mechanisms for managing non-performing loans in commercial banks, with the process being explained through theoretical aspects. Non-performing loans can negatively affect the operations of banks, increase risks to liquidity and profitability, and also threaten the stability of the economy. The article provides a theoretical analysis of the concept of non-performing loans, their causes, and the economic and interorganizational issues related to these loans. The risk management strategies of banks, loan restructuring, methodologies focused on handling only risky loans, and other advanced approaches are discussed. Furthermore, the article highlights the appropriate measures used by commercial banks in combating non-performing loans and methods for implementing innovative technologies. The article emphasizes the importance of developing and applying effective strategies for reducing non-performing loans and presents scientific and practical proposals in this regard.

Key words: non-performing loans, credit policy, credit risk assessment, economic stability, bank profitability, bank capital, operational plan.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость разработки механизма работы коммерческих банков с проблемными кредитами, где этот процесс раскрывается с теоретической стороны. Проблемные кредиты могут оказывать негативное влияние на деятельность банков, повышать риски для ликвидности и рентабельности, а также угрожать стабильности экономики. В статье анализируется понятие проблемных кредитов, причины их возникновения, а также экономические и межорганизационные вопросы, связанные с этими кредитами, с теоретической точки зрения. Приведены стратегии управления рисками банков, реструктуризация кредитов, методологии, направленные исключительно на работу с рисковыми кредитами, и другие передовые подходы. Также освещаются соответствующие меры и способы внедрения инновационных технологий, применяемые коммерческими банками в борьбе с проблемными кредитами. Статья подчеркивает важность разработки и применения эффективных стратегий по сокращению проблемных кредитов, предлагая научные и практические рекомендации в этой области.

Ключевые слова: проблемные кредиты, кредитная политика, оценка кредитных рисков, экономическая стабильность, рентабельность банков, банковский капитал, операционный план.

KIRISH

Banklar moliya tizimida muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy inqirozlar ko'pincha bank sektoridagi aktivlar sifatining yomonlashuvi, xususan, muammoli kreditlarning (NPL) ko'payishi bilan uzviy bog'liq. Bunday aktivlarni samarali boshqarish bank portfelining sog'lomligini ta'minlash va umumiy moliyaviy barqarorlikni saqlab qolish uchun muhimdir.



So'nggi moliyaviy inqirozlarda muammoli kreditlarning iqtisodiy oqibatlari sababli, bu tushuncha mutaxassislar va olimlarning e'tiboriga tushdi. Bu inqirozlar asosan bank tizimidagi muammoli kreditlarning ortishi natijasida yuzaga keldi, chunki ular banklarning rentabelligini kamaytirib, kredit berishni cheklashga majbur qiladi. Barqaror va yaxshi tartibga solingan bozorlarda muammoli kreditlar ko'rsatkichlari pastroq bo'lib, aksincha, past samaradorlikka ega va raqobat darajasi past bo'lgan bozorlarda yuqori muammoli kreditlar darajasi kuzatilmoqda.

Dunyoning sakkizta mintaqasidagi muammoli kreditlar evolyutsiyasini tahlil qilsak, 2008–2009-yillardagi moliyaviy pufakchadagi qulash natijasida muammoli kreditlarning umumiy oshishi, 2015–2018-yillarda past foiz stavkalari tufayli muammoli kreditlarning kamayishi va 2019-yildan boshlab COVID-19 pandemiyasi ta'sirida muammoli kreditlarning o'sishi kuzatilgan. Har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari va sharoitlari mavjud bo'lib, ular muammoli kreditlarning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Tarixda bir qator moliyaviy inqirozlar muammoli kreditlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan. Misol uchun, 1980-yillar oxiri va 1990-yillarda AQShda omonatchi va kredit inqirozi yuz berdi, bu 747 ta bankning yopilishiga olib keldi. Shuningdek, 1991–1993-yillarda Finlyandiya bank inqirozi va 1994-yildagi Venesuela bank inqirozi kabi holatlar ham mavjud. 1997-yildagi Osiyo moliyaviy inqirozi esa ortiqcha kreditlash va ko'chmas mulk bozorida qattiq shartlar tufayli yuzaga keldi.

Ushbu inqirozlar, shuningdek, banklarning kredit siyosati va moliyaviy barqarorligining ahamiyatini ko'rsatadi. Muammoli kreditlar darajasining oshishi banklarning moliyaviy holatini zaiflashtiradi va iqtisodiy barqarorlikka tahdid soladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoli kreditlar (NPL) bank tizimining barqarorligi va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar ko'plab omillarni, jumladan, kreditlash amaliyoti, iqtisodiy sharoitlar va banklarning operatsion samaradorligini o'rganadi. Muammoli kreditlar tushunchasi borasida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ta'riflar berilgan bo'lib, ular bu tushunchani kengroq anglashga xizmat qiladi.

Maxmudov Rahimjon Hamid o'g'li o'z maqolasida muammoli kreditlarni baholash va aniqlash modellari haqida so'z yuritadi. U muammoli kreditlarning yuqori darajasi banklarning kapital bazasini yemirishini, likvidligini pasaytirishini va kreditlash imkoniyatlarini yomonlashtirishini ta'kidlaydi. Muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga kreditni noto'g'ri baholash, iqtisodiy tanazzul va qarz oluvchilarni noto'g'ri boshqarish kabi omillar sabab bo'lishini ko'rsatadi.

Jonibek Rustamov muammoli kreditlarning iqtisodiy ahamiyati va bank operatsion samaradorligiga ta'sirini o'rganadi. U muammoli kreditlar va bank samaradorligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, risklarni boshqarish amaliyotlarini yaxshilash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda muammoli kreditlarni bartaraf etishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Abdulla Kalandarov o'zining bir qator maqolalarida muammoli kreditlarning tasnifi, kelib chiqish sabablari va ularni kamaytirish usullarini tahlil qilgan. Masalan, "Muammoli kreditlar tasnifi va ularning vujudga kelish omillari" nomli maqolasida u tijorat banklaridagi muammoli kreditlarning tasnifi va ularning kelib chiqish omillarini o'rganadi. Shuningdek, "Banklardagi muammoli kreditlarni undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'llari" maqolasida muammoli kreditlarni kamaytirish va undirish amaliyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar beradi. Abdulla Kalandarov mamlakatimiz tijorat banklaridagi muammoli kreditlar haqida maqola yozgan. U muammoli kreditlarning kelib chiqish sabablari, ularning hozirgi holati va ularni bartaraf etish bo'yicha jahon tajribasiga asoslangan takliflar beradi. Kredit monitoringi va qarz oluvchilarni boshqarishning muhimligini ta'kidlaydi.

Mohd Karim va Sallahundin (2010) ning fikricha, muammoli kreditlarni boshqarish ko'pincha yuqori operatsion xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, bu banklarning kapital o'sishini pasayishiga olib keladi. Muammoli kreditlar (NPL) banklarning likvidligini kamaytiradi, kredit kengayishini buzadi va haqiqiy sektorning o'sishini sekinlashtiradi, bu esa banklarning ishlashiga bevosita ta'sir qiladi.

Xorijlik olimlar Do, Ngo, Phunglar (2020) fikriga ko'ra muammoli kreditlar banklar faoliyatini aks ettiradi. Banklar kredit berish amaliyoti orqali iqtisodiy o'sishni taraqqiy etishi va risklarni kamaytirish uchun zarur himoya choralarini qo'llab-quvvatlash o'rtasida muvozanatni saqlashga intiladi. Muammoli kreditlar paydo bo'lganda, tijorat banklari mas'uliyat bilan yondashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Tadqiqotchilar aylanma mablag'larni boshqarish strategiyalarini o'rganishda moliyaviy qarorlarning ta'minot zanjiri faoliyatiga ta'sirini tushunishda hamda ta'minot zanjiridagi moliyaviy risklarni minimallashtirishda aylanma mablag'lar aylanuvchanligini oshirish zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Somoye (2010) ning fikriga ko'ra, NPLlar shuningdek, bank tizimiga bo'lgan investorlar ishonchini pasaytiradi, shu bilan ular foydali investitsiyalar qilishdan qaytishadi. Nigeriya bank sektori haqida gapiradigan bo'lsak, bank mijozlarining ishonchini qayta tiklash uchun jiddiy va tezkor chora-tadbirlar ko'rilishi zarur. Ishonch



– bu banklar mijozlarning yangilangan xizmatlarga qiziqishini olish uchun taklif qilishi kerak bo'lgan omillardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy abstraksiyalash, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil hamda sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida tijorat banklarida muammoli kreditlar nazariy asoslari, ularning vujudga kelish sabablari va o'ziga xos xususiyatlari asoslandi va amaliy tavsiyalar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Muammoli kreditlar (NPL) – bu qarzdorlar belgilangan muddatda asosiy qarz yoki foiz to'lovlarini amalga oshirmaydigan kreditlardir. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) ta'rifiga ko'ra, muammoli kreditlar, agar asosiy qarz va foizlar 90 kun yoki undan ko'proq muddatga kechikkan bo'lsa, yoki foiz to'lovlari 90 kundan ortiq bo'lsa va ular kapitalizatsiya qilingan, qayta moliyalashtirilgan yoki uzaytirilgan bo'lsa, muammoli kredit deb hisoblanadi. Xalqaro Moliyaviy Institut (IIF) kreditlarni besh turga ajratadi: standart, kuzatish, past sifatli, shubhali va yo'qotilgan. Past sifatli, shubhali yoki yo'qotilgan deb tasniflangan kreditlar muammoli kreditlar sifatida ko'rib chiqiladi. Bunday kreditlar, odatda, asosiy qarz va/yoki foizlarning 90, 180 yoki 365 kundan ko'proq muddatga kechikkanligini anglatadi.

Muammoli kreditlarning yuqori darajasi, asosan, kredit xavfini ko'rsatib, banklarning rentabelligiga va likvidligiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa, o'z navbatida, bank tizimining barqarorligiga tahdid solishi mumkin. Shuning uchun, muammoli kreditlar bilan samarali kurashish, bank sektorining sog'lom ishlashini ta'minlash va umumiy iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Muammoli kreditlar (NPL) strategiyasini ishlab chiqish va tegishli NPL qisqartirish maqsadlarini belgilashda hozirgi va kelajakdagi tashqi faoliyat sharoitlarini va muhitini tushunish asosiy ahamiyatga ega. Banklar ushbu tashqi omillarni diqqat bilan kuzatib borishlari va zaruratga qarab NPL strategiyalarini yangilab turishlari lozim. (1-jadval)

1-jadval. Banklar tomonidan strategiya belgilashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan tashqi omillar:

Tashqi omillar	Ta'sir qilish doirasi
Iqtisodiy o'sish sur'atlari	Yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishi va iqtisodiyotning boshqa ko'rsatkichlari kredit portfeli sifatiga ta'sir qiladi.
Ishsizlik darajasi	Ishsizlikning yuqori darajasi qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini pasaytirib, NPLlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.
Inflyatsiya darajasi	Narxlarning oshishi qarz oluvchilarning real daromadlarini kamaytirib, kreditlarning qaytarilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.
Valyuta kursining o'zgarishi	Mahalliy valyutaning qadrsizlanishi xorijiy valyutada qarzi bo'lgan mijozlar uchun to'lov qiyinchiliklarini keltirib chiqarishi mumkin.
Moliyaviy sektorning tartibga solinishi va islohoti	Bank tizimidagi o'zgarishlar va yangi tartib-qoidalar kredit risklarini boshqarish amaliyotlariga ta'sir qiladi.
Xalqaro iqtisodiy sharoitlar	Dunyo bozorlaridagi o'zgarishlar, savdo hamkorlarining iqtisodiy holati va global moliyaviy inqirozlar mahalliy bank tizimiga ta'sir boshqarish usullarini o'zgartirishi mumkin.
Ijtimoiy omillar	Aholining ijtimoiy holati, ta'lim darajasi va iste'dodi kredit olish va to'lash qobiliyatiga ta'sir qiladi.
Tabiiy ofatlar va ekologik omillar	Tabiiy ofatlar va ekologik muammolar qarz oluvchilarning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Texnologik taraqqiyot	Raqamli transformatsiya va yangi texnologiyalar banklarning kredit risklarini boshqarish usullarini o'zgartirishi mumkin.
Ijtimoiy omillar	Aholining ijtimoiy holati, ta'lim darajasi va iste'dodi kredit olish va to'lash qobiliyatiga ta'sir qiladi.



Bundan tashqari, bankka oid quyidagi ichki omillar ham muammoli kreditlarni keltirib chiqaradi:

- Kredit siyosatining zaifligi: Banklar noto'g'ri kredit siyosatini qo'llaganida, ya'ni kreditlarni faqat daromad olish maqsadida, risklarni to'liq baholamagan holda berish, muammoli kreditlarning o'sishiga sabab bo'ladi.
- Yomon kredit baholash tizimi: Kredit berish jarayonida yomon baholash tizimining mavjudligi yoki baholashning noto'g'ri amalga oshirilishi kredit risklarini oshiradi.
- Past sifatli mijozlar: Mijozlarning moliyaviy holati va to'lov qobiliyatini noto'g'ri baholash yoki hech qanday tahlil qilmasdan kredit berish muammoli kreditlarning ko'payishiga olib keladi.
- Operatsion va boshqaruvdagi xatoliklar: Bankning ichki jarayonlarida va xodimlarning malakasizligi muammoli kreditlarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, kredit so'rovlarini noto'g'ri qayta ishlash yoki to'lovlarni o'z vaqtida tekshirmaslik.
- Kredit resurslarining noto'g'ri taqsimlanishi: Banklar o'zining kredit resurslarini noto'g'ri taqsimlashlari yoki yuqori riskli sektorlarga e'tibor qaratishlari mumkin, bu esa muammoli kreditlarni keltirib chiqaradi.

Kredit resurslari narxining oshishi bankning kredit portfelining yomonlashuviga olib keladigan eng muhim omil hisoblanadi. Banklar daromadlarni ko'paytirish maqsadida kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini oshiradilar. Keyinchalik, bu qarz oluvchining xarajatlarning oshishiga, mahsulot narxining oshishiga va natijada uni sotishning sekinlashishiga, daromad va biznes rentabelligining pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, qarz oluvchi kreditni o'z vaqtida to'lashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Natijada, qarama-qarshilik yuzaga keladi: kreditlar bo'yicha foiz stavkalari darajasining oshishi kreditlarning qaytarilmasligi riskining oshishiga olib keladi.

2-jadval. Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2025-yil 1-mart holatiga ma'lumot mlrd. so'm.

№	Bank nomi	Kreditlar	Muammoli kreditlar (NPL)	Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi
Jami		540 022	24 348	4,5%
Davlat ulushi mavjud banklar		370 634	17 018	4,6%
1	O'zmilliybank	108 064	4 001	3,7%
2	O'zsanoatqurilishbank	66 552	2 954	4,4%
3	Agrobank	60 735	2 879	4,7%
4	Asaka bank	39 180	1 859	4,7%
5	Xalq banki	28 935	1 238	4,3%
6	Biznesni rivojlantirish banki	22 989	2 069	9,0%
7	Mikrokreditbank	18 111	1 251	6,9%
8	Aloqa bank	13 693	353	2,6%
9	Turon bank	12 377	414	3,3%

O'zbekiston banklarining kredit portfellarini va ulardagi muammoli kreditlarning holatini tahlil qilish mamlakatda kredit risklarini boshqarish va bank sektorining barqarorligini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, jami 540 022 million so'm kreditlardan 24 348 million so'm miqdoridagi muammoli kreditlar tashkil etadi, bu esa jami kreditlarning 4,5 foizini tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich bank sektoridagi kredit risklari mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushining nisbatan pastligi mamlakat banklarining umumiy kredit portfellarini boshqarishda muvozanatli yondashuvni saqlayotganligini ham ko'rsatadi.

Davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarning jami 370 634 million so'm kreditlari tarkibida 17 018 million so'm miqdorida muammoli kreditlar mavjud bo'lib, bu jami kreditlarning 4,6 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich davlat banklarining kredit portfellarida muammoli kreditlar ulushining yuqoriligini bildiradi. Davlat banklari odatda qishloq xo'jaligi, kichik va o'rta biznes kabi yuqori riskga ega sektorlarga kredit berishadi, bu esa muammoli kreditlar ulushining yuqorilashiga olib keladi.

Banklar kesimida olib qaralganda, O'zmilliybank jami 108 064 million so'm kreditlarga ega bo'lib, undagi muammoli kreditlar 4 001 million so'mni tashkil qiladi (3,7%). O'zsanoatqurilishbank 66 552 million so'm kreditlardan 2 954 million so'mni muammoli kreditlar tashkil qiladi (4,4%). Agrobank esa 60 735 million so'mlik kreditlardan 2 879 million so'm muammoli kreditga ega bo'lib, bu jami kreditlarning 4,7 foizini tashkil qiladi. Biznesni rivojlantirish banki muammoli kreditlar ulushi bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega – 22 989 million so'm kreditlar tarkibida 2 069 million so'm (9%). Mikrokreditbank esa 18 111 million so'mlik kreditlaridan 1 251 million so'mni (6,9%) muammoli kreditlar tashkil etadi.



Ushbu ko'rsatkichlar banklarning kredit risklarini boshqarishda ehtiyotkorlikni oshirish zarurligini anglatadi. Ayrim banklarda muammoli kreditlar ulushining yuqoriligi ulardan samarali boshqaruv strategiyalarini talab etadi. Masalan, Biznesni rivojlantirish banki va Mikrokreditbank kabi banklarda kredit portfellarini sifatini yaxshilash uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqilishi kerak. Risklarni baholash va nazorat qilishni takomillashtirish, kreditorlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish bu borada muhimdir.

Muammoli kreditlar ulushi yuqori bo'lgan banklar uchun qayta tuzish va maxsus strategiyalarni joriy etish zarur. Bu qarzlarni qaytarish samaradorligini oshirish va kredit risklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, O'zbekistondagi banklar uchun muammoli kreditlar bo'yicha samarali chora-tadbirlar ko'rish, moliyaviy barqarorlikni saqlash va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, kredit riski boshqaruvi bo'yicha strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish, shuningdek, kredit portfellarini sifat jihatidan yaxshilash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, xalqaro va milliy tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalarga muvofiq, bankning boshqaruv organi muassasaning muammoli kreditlar bilan ishlash strategiyasini tasdiqlashi va uning amalga oshirilishini nazorat qilishi kerak. Yuqori darajadagi muammoli kreditlar (NPL) bo'lgan banklar uchun bu strategiya va operatsion reja umumiy strategiyaning muhim qismini tashkil etadi va shu sababli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanishi va yo'naltirilishi zarur. Ayniqsa, boshqaruv organi quyidagilarni ta'minlashi kerak:

- Har yili muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmini va operatsion rejasini tasdiqlash va muntazam ravishda ko'rib chiqish;
- bu mexanizmning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- muammoli kreditlar bilan ishlash faoliyatlari uchun boshqaruv maqsadlarini (shu jumladan miqdoriy maqsadlarni) va rag'batlantirishlarni belgilash;
- muammoli kreditlar bilan ishlash strategiyasida belgilangan maqsadlar va asosiy bosqichlar bilan taqqoslaganda erishilgan yutuqlarni doimiy ravishda monitoring qilish (kamida har chorakda bir marta);
- ular bilan ishlash qarorlari uchun tasdiqlash jarayonlarini belgilash; ayrim katta muammoli kreditlar bo'yicha qarorlar boshqaruv organi tomonidan tasdiqlanishi lozim;
- muammoli kreditlar bilan bog'liq siyosatlarni tasdiqlash va ularning xodimlar tomonidan to'liq tushunilishini ta'minlash;
- muammoli kreditlar boshqaruv jarayonlari bo'yicha ichki nazoratni ta'minlash, ayniqsa ularning klassifikatsiyasi, rezervlar, kafolatlar baholash va sabr-toqatli qarorlar barqarorligi bo'yicha faoliyatlarga alohida e'tibor qaratish;
- muammoli kreditlar boshqaruvi sohasida yetarli tajribaga ega bo'lish.

Shunday qilib, muammoli kreditlarning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish va batafsil bayon etish, ularning mikro va makro darajadagi turli xususiyatlarini va ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektlarini hisobga olgan holda, mahalliy banklarga o'z kredit portfellari sifatini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali muammoli kreditlar ulushining o'sishiga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni aniqlash, shuningdek, ularning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlar va mas'ul shaxslarni belgilash mumkin bo'ladi. Bularning barchasi kelajakda kredit xavflarini minimallashtirishga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, muammoli kreditlarni kamaytirish strategiyasi bankning kompleks harakatlar rejasini taqdim etadi, va ushbu rejaning amaliyotda to'liq bajarilishi banklarga joriy sharoitlarda katta hajmdagi muammoli kreditlarni samarali hal qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa kredit portfellari sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F.B. Yangiboev. Muammoli kreditlar monitoringni olib borish tizimini takomillashtirish masalalari // Ta'lim fidoyilari, 2022, №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muammoli-kreditlar-monitoringni-olib-borish-tizimini-takomillashtirish-masalalari>.
2. Markaziy bank rasmiy sayti // URL: <https://cbu.uz/uz/statistics>.
3. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ilmiy elektron jurnalining maqolasi // URL: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/2961>.
4. Finance and Business Journal maqolasi: URL: https://fbj.springeropen.com/articles/10.1186/s43093-022-00117-9?utm_source.
5. Berge, O.; Boye, G. An analysis of banks' problem loans. Econ. Bull., 2007, 2, 65–76. URL: https://www.mdpi.com/2813-2432/2/2/7?utm_source.
6. Innovatsion Akademiya ilmiy maqolasi // URL: https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/37864?utm_source.
7. CEDR jurnalining maqolasi // URL: https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/1269?utm_source.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>